


## NAVOIY VILOYATIDA SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO‘RSATKICHLARI

2020-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, Navoiy viloyatida 34 ta shifoxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 23,5 % (8 tasi) xususiy mulkchilik shaklidagi sub’ektlar hisoblanadi. Jami shifoxonalar soni 2018- yilga nisbatan 9,7 %ga (3 taga) oshdi.


2019-yil yakuniga ko‘ra, Navoiy viloyatida 287 ta ambulatoriya - poliklinikalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 53,7 % (154 ta) mulkchilik shakli bo‘yicha kichik korxonalar va mikrofirmalar hisoblanadi. Ambulatoriya - poliklinikalari soni bir yil mobaynida 6,7 %ga (18 ta) ko‘paydi.

► **Shifoxona** — statsionar sharoitida tibbiy yordam ko‘rsatuvchi sog‘liqni saqlash muassasasi hisoblanadi .

► **Ambulatoriya - poliklinikalari** – ambulatoriya sharoitida tibbiy yordam ko‘rsatuvchi va (yoki) tibbiy tahlil o‘tkazadigan sog‘liqni saqlash muassasasi (poliklinikalar, ambulatoriya, dispanserlar, tibbiy-sanitariya qismlari va boshqalar) hisoblanadi.



## Navoiy viloyatida shifoxona va ambulatoriya – poliklinikalari soni (2019- yil yanvar-dekabr, birlik)




Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan shifoxonalar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Navoiy shahri (15 ta), Karmana tumani (5 ta), Xatirchi va Navbahor tumanlari (3 tadan) hissasiga to'g'ri kelmoqda. Aksincha, boshqa hududlarga nisbatan shifoxonalar soni bo'yicha eng kam ko'rsatkich Zarafshon shahri va Uchquduq tumani (2 tadan), Qiziltepa, Nurota, Konimex va Tomdi tumanlarida (1 tadan) kuzatilmoqda.

Shuningdek, faoliyat yuritayotgan ambulatoriya – poliklinikalari soni bo'yicha hududlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak eng yuqori ko'rsatkich Navoiy shahri (93 ta), Karmana tumani (38 ta), Xatirchi tumani (32 ta), Qiziltepa tumani (28 ta), Zarafshon shahri (24 ta) hamda Navbahor tumani (22 ta) hissasiga to'g'ri kelmoqda. Aksincha, boshqa hududlarga nisbatan ambulatoriya – poliklinikalari soni bo'yicha eng kam ko'rsatkich Nurota va Uchquduq tumanlarida (15 tadan), Konimex tumani (13 ta) hamda Tomdi tumanida (7 ta) kuzatilmoqda.


## Shifoxona muassasalarinig asosiy ko'rsatkichlari (2018-2019 yil yanvar-dekabr)

	2018- y.	2019- y.
Shifoxona muassasalari soni, <i>birlik</i>	31	34
O'rinlar soni, <i>o'rin</i>	4 006	4 055
10 000 aholiga shifoxona o'rinlar soni	41	41
Davolangan bemorlar soni, <i>ming kishi</i>	200,1	209,3
Bemorlar o'tkazgan o'rin kunlar soni, <i>ming. kun</i>	1 265, 6	1 326,7


2019- yilda Navoiy viloyati bo'yicha shifoxonalarda jami 4 055 ta shifoxona o'rinlari foydalanishda bo'lgan, shundan 4 % (161 tasi) xususiy mulkchilik shaklidagi sub'ektlarga tegishli. 10 000 aholiga nisbatan shifoxona o'rinlari soni 41 tani tashkil etmoqda.



## Ambulatoriya – poliklinikalarning asosiy ko‘rsatkichlari (2018-2019 yil yanvar-dekabr)




2019- yilda ambulatoriya-poliklinikalari quvvati 2018- yilga nisbatan 3,3 % ga oshdi. Shuningdek, 2018- yilda ambulatoriya-poliklinikalari bir smenada 15,2 ming kishini qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan bo‘lsa, 2019- yilda bu ko‘rsatkich 15,7 ming kishiga etdi. Shu bilan birga, 2018- yilda ambulatoriya-poliklinikalariga qatnovlar soni 9 604,1 ming marotabani tashkil etgan bo‘lsa, 2019- yilda bu ko‘rsatkich 10 026,6 ming marotabani tashkil etdi.



## Tez tibbiy yordam faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (2018-2019 yil yanvar-dekabr)

Tez tibbiy yordam stansiyalari, kichik stansiyalar va punktlari soni 2019- yilda 55 tani tashkil etib, 2018- yilga nisbatan 1,9 % ga (1 ta) oshdi, shu jumladan, 2019- yilda bajarilgan chaqiriqlar soni 390,5 mingtani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 2,8 % oshdi. Shuningdek, 2019- yilda tez tibbiy yordam ko'rsatilgan shaxslar soni 592,4 ming kishini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 45,4 % ga ortdi.



## Navoiy viloyatida aholining kasalliklarga chalinishi (2019- yil yanvar-dekabr)

► **Birlamchi kasallanish** – birinchi marta tashxis qo'yilgan ro'yxatga olingan bemorlar soni, hayotlarida birinchi marta kasalliklarning aniq turlariga tashxis qo'yilgan bemorlarning hisobot yili davomida aniqlangan (yoki dispenser kuzatuviga olingan) holatlar soni bilan belgilanadi.

Birinchi marta qo'yilgan tashhis bilan qayd qilingan kasalliklar – 2019-yilda kasallanish turlari bo'yicha eng yuqori ulush nafas olish a'zolari kasalliklarida kuzatilib jami birlamchi kasallanishdan 21,7 % ini tashkil etdi, keying o'rinlarda oshqozon-ichak kasalliklari – 13,0 %, qon va qon yaratish a'zolari kasalliklari va immun mexanizmiga ta'sir etuvchi ayrim buzilishlar – 9,3 %, jaroxatlar - 6,5 %, siydik-tanosil tizimi kasalliklari – 4,6 %, endokrin tizimi kasalliklari, ovqatlanish, modda almashinuvi buzilishlari – 3,8 %, qon aylanishi tizimi kasalliklari – 3 %, ko'z va uning qo'shimtalari kasalliklari – 2,6 % va boshqalar – 35,5 % ni tashkil etdi.



2019- yilda birinchi marta tashxisi aniqlanib ro'yxatga olingan kasalliklar soni 572,7 mingta bo'lib, ulardan 55,3 % ayollarda va 44,7 % erkaklarda aniqlangan.


**Navoiy viloyatida xududlar bo'yicha aholining kasalliklarga chalinishi**  
*(2018-2019 yil yanvar-dekabr)*

	2018- yil	2019- yil
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>63 454</b>	<b>57 948</b>
<i>shaharlar:</i>		
Navoiy	114 020	91 101
Zarafshon	63 881	62 120
<i>tumanlar:</i>		
Konimex	54 056	53 646
Karmana	68 461	72 779
Qiziltepa	48 299	47 520
Navbahor	47 699	46 080
Nurota	41 716	47 654
Tomdi	32 450	21 953
Uchquduq	99 982	60 397
Xatirchi	52 165	45 259


## Navoiy viloyatida yosh guruhlari bo'yicha birinchi marta ro'yxatga olingan kasalliklar (2019- yil yanvar-dekabr)

2019- yilda birinchi marta qo'yilgan tashxis bilan qayd qilingan kasalliklar bemorlarning yosh guruhlari bo'yicha tahlil qilinganda, asosiy qismi, ya'ni 64,9 % 18 va undan katta yoshdagilar hissasiga to'g'ri keldi.

Birinchi marta qo'yilgan tashxis bilan qayd qilingan kasalliklar sonida yosh guruhlari ulushi



Birinchi marta qo'yilgan tashxis bilan qayd qilingan kasalliklar, mos yosh guruhi bo'yicha, kishi






**Aholining tibbiyot xodimlari bilan ta'minlanganligi  
(2019- yil yanvar-dekabr)**

	Jami shifokorlar soni, <i>kishi</i>	10 000 aholiga to'g'ri keladigan shifokorlar soni	Bitta shifokorga to'g'ri keladigan aholi soni	Jami o'rta tibbiyot xodimlari soni, <i>kishi</i>	10 000 aholiga to'g'ri keladigan o'rta tibbiyot xodimlari soni	Bitta o'rta tibbiyot xodimiga to'g'ri keladigan aholi soni
2018- y.	2 835	29	343	13 488	138	72
2019- y.	2 899	29	341	13 673	137	72

2018- yilda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sohasida 2 835 shifokor faoliyat yuritgan bo'lsa, 2019- yilga kelib, ularning soni 2 899 kishiga etdi, o'sish sur'ati 2,3 % ni tashkil etdi. 2018- yilga nisbatan o'rta ma'lumotli tibbiy xodimlari soni 1,4 % ga (13 488 dan 13 673 kishiga) oshdi. 2019- yilda har 10 ming aholiga nisbatan shifokorlar soni 29 nafarni tashkil etdi, o'rta ma'lumotli tibbiyot xodimlari soni esa – 137 nafarni tashkil etdi.


**Shifokorlarning malaka toifalari bo'yicha taqsimlanishi  
(2019- yil yanvar-dekabr, % da)**






► **Bitta tibbiyot xodimiga to'g'ri keluvchi aholi soni** – 2019- yilda bitta vrachga to'g'ri keluvchi aholi soni 341 kishini va bitta o'rta ma'lumotli tibbiyot xodimiga to'g'ri keluvchi aholi soni 72 kishini tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha o'rtacha bitta shifokorga to'g'ri keladigan aholi soni**  
(2019- yil yanvar-dekabr, kishi)



**Bitta o'rta ma'lumotli tibbiyot xodimiga to'g'ri keladigan aholi soni**  
(2019- yil yanvar-dekabr, kishi)



**Tibbiyot xodimlari soni**  
**(2019- yil yanvar-dekabr, kishi)**

	Shifokorlar	O'рта tibbiyot xodimlari
Navoiy viloyati	2 899	13 673
<i>shaharlar:</i>		
Navoiy	1 293	4 283
Zarafshon	274	1 026
<i>tumanlar:</i>		
Konimex	60	381
Karmana	290	1 339
Qiziltepa	270	2 065
Navbahor	162	1 078
Nurota	122	910
Tomdi	13	192
Uchquduq	150	624
Xatirchi	265	1 775

**Navoiy viloyati statistika boshqarmasi**  
**Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi**